



## THE OBJECTIVE NECESSITY OF IMPROVING THE STRATEGIC MANAGEMENT MECHANISM IN CONSTRUCTION ENTERPRISES

Visola Narziyeva Safarbekovna,

Teacher At SAMBHRAM University

Article history:	Abstract:
<b>Received:</b> 24 <sup>th</sup> February 2026 <b>Accepted:</b> 20 <sup>th</sup> March 2026	This article analyzes the theoretical and practical aspects of improving strategic management mechanisms in construction enterprises, as well as substantiates its objective necessity. Particular attention is paid to issues of increasing competitiveness in a market economy, efficient use of resources, and the implementation of innovative approaches. The paper also explores ways to enhance enterprise efficiency based on global experience, modern management concepts, and digital technologies.

**Keywords:** strategic management, construction enterprises, competitiveness, innovation, management, efficiency, construction enterprises, project management, risk management.

## QURILISH KORXONALARIDA STRATEGIK BOSHQARUV MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING OBYEKTIV ZARURATI

Visola Narziyeva Safarbekovna

"SAMBHRAM" universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada qurilish korxonalarida strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari hamda uning obyektiv zaruriyati tahlil qilingan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, Jahon tajribasi, zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari va raqamli texnologiyalar asosida korxonalar samaradorligini oshirish yo'llari

**Kalit so'zlar:** strategik boshqaruv, qurilish korxonalari, raqobatbardoshlik, innovatsiya, menejment, samaradorlik, qurilish korxonalari, loyiha boshqaruvi, risk-menejment.

## ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМА СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

**Аннотация:** В данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты совершенствования механизмов стратегического управления в строительных предприятиях, а также обоснована его объективная необходимость. Особое внимание уделено вопросам повышения конкурентоспособности в условиях рыночной экономики, эффективного использования ресурсов и внедрения инновационных подходов. Также рассмотрены пути повышения эффективности предприятий на основе мирового опыта, современных концепций управления и цифровых технологий.

**Ключевые слова:** стратегическое управление, строительные предприятия, конкурентоспособность, инновации, менеджмент, эффективность, строительные предприятия, управление проектами, риск-менеджмент.

### KIRISH

Globalashuv sharoitida qurilish sohasi jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, strategik boshqaruvni samarali tashkil etgan korxonalar yuqori raqobatbardoshlikka ega bo'ladi. Ayniqsa, raqamli

transformatsiya jarayonlari qurilish sohasida yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Ta'kidlash joizki, Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan global o'zgarishlar, xalqaro bozorlardagi tebranishlar, sanoat va texnologiyalarning keskin rivojlanishi, energiya bozorlaridagi transformatsiya, global ta'minot zanjirlarining qayta shakllanishi


O'zbekistondan ham yangi yondashuvlarni talab etmoqda.

Bu borada mamlakatimizda tub islohotlarni amalga oshirish ayniqsa, mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirishni taqozo etadi. Shuningdek, barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash sanoatning "drayver" sohalarni rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish, qurilish nazoratida xususiy qurilish nazorati ulushini 20 foizga yetkazish [1] kabi muhim yechimini topish kerak bo'lgan vazifalar belgilangan.

### Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Strategik boshqaruv tushunchasi ilk bor XX asrda shakllangan bo'lib, Igor Ansoff va Michael Porter ishlarida chuqur yoritilgan. Ular strategik rejalashtirish va raqobat ustunliklarini shakllantirish masalalarini ilmiy asoslab bergan.

Porterning "raqobat kuchlari" modeli qurilish bozorida raqobat muhitini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, bozorda 5 ta asosiy kuch ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan (1-rasm).



1-rasm. Porterning "raqobat kuchlari" modeli qurilish bozorida raqobat muhitini tahlili

Shuningdek, amerikalik iqtisodchi va matematik **Igor Ansoffning** ilmiy faoliyati va ahamiyatiga to'xtalib o'tsak. U boshqaruv nazariyasini shakllantirgan asosiy olimlardan biri hisoblanadi. Uning ilmiy ishlari 1960–1970-yillarda ayniqsa keng tarqalgan va boshqaruv nazariyasida yangi bosqichni boshlab bergan. Uning asosiy nazariyasi 1970-yillar boshida strategik boshqaruv tushunchasini "Corporate Strategy" asarida ilmiy muomalaga kiritgan[3].

Ansoffning asosiy nazariy g'oyalari shundan iboratki, "Ansoff matritsasi" bo'lib bu g'oyaning asl negizida bozor va mahsulot asosida 4 xil o'sish strategiyasini jumladan, bozorni chuqurlashtirish, bozorni rivojlantirish, mahsulotni rivojlantirish, diversifikatsiya kabi modelni yaratgan. Bu model kompaniyalarga qaysi yo'nalishda rivojlanishni tanlashda yordam bergan.


Raqobat strategiyasining asoschilaridan **Michael Porter** bo'lib uning g'oyasi esa - bu raqobatda

ustunlikka erishishdir. O'ziga xos xususiyatlari kompaniyaning bozordagi o'rni muhimligi, raqobat tahlili asosiy o'rinda bo'lishi, "qay tarzda raqobatlashish" kerak kabi muhim munozalarga javob bergan. Asosiy modeli (Five Forces) hamda 3 umumiy strategiya: xarajatlar bo'yicha yetakchilik, differentsiatsiya va fokusdir[4].

**Henry Mintzberg** (amaliy va dinamik yondashuv)ning strategik boshqaruvdagi asosiy g'oyasi - strategiya har doim ham rejalashtirilmaydi

- u jarayonda shakllanadi deb ilmiy asoslagan[5]. Uning g'oyalari va ilmiy qarashlarining o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, u strategiya

"paydo bo'luvchi" (emergent) bo'lishi mumkinligi, amaliy tajriba muhim hamda inson omili va intuitsiya katta rol o'ynaydi deb ta'kidlagan. Shuningdek, uning asosiy konsepsiyasida strategiyani quyidagicha ko'radi (2-rasm).



**2-rasm. Henry Mintzberg (amaliy va dinamik yondashuv)ning strategik boshqaruvdagi asosiy konsepsiyasi**

Yuqorida keltirilgan iqtisodchi olimlar tomonidan keltirilgan ilmiy yondashuvlar korxonalarining strategik boshqaruvda muhim ahamiyat kasb etadi va ularning umumiy va farqli jihatlarini ko'rib o'tamiz (1-jadval).

**1-jadval**

**Mavzuga oid xorijiy olimlar ilmiy qarashlarining qiyosiy tahlili**

T/r	Omil	Ansoff	Porter	Mintzberg
1	Yondashuv	Rejalashtirish	Raqobat	Dinamik
2	Asosiy savol	Qanday o'sish?	Qanday raqobatlashish?	Qanday rivojlanyapti?
3	Metod	Tahlil + reja	Bozor tahlili	Tajriba
4	Strategiya turi	Oldindan rejalashgan	Raqobatga mos	Paydo bo'luvchi

Bizning fikrimizcha, bugungi kunda nafaqat qurilish korxonalarida barcha korxonalar va tashkilotlarda tashkiliy huquqiy shakli va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar zamonaviy strategik boshqaruvda jumladan, rejalashtirish, raqobat tahlili va moslashuvchanlik kabi uchta yondashuv birgalikda qo'llanilganda korxonaning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi.

**Tahlil va natijalar**



Strategik boshqaruv - bu korxonalar faoliyatini uzoq muddatli istiqbolga yo'naltirish va tashqi hamda ichki omillarni hisobga olgan holda qarorlar qabul qilish jarayonidir.

So'nggi yillarda qurilish sohasining iqtisodiyotdagi ulushi ortib bormoqda. O'zbekistonda qurilish ishlari hajmining o'sish dinamikasi quyidagicha:

O'zbekistonda qurilish tashkilotlari soni yildan-yilga barqaror ravishda o'sib bormoqda. Bu esa:

bozor iqtisodiyotining rivojlanishi;

xususiy sektor faolligining oshishi;

uy-joy va infratuzilmaga bo'lgan talab ortishi;

bilan bevosita bog'liq.

Shu bois, qurilish sohasi boshqa tarmoqlarga nisbatan o'ziga xos quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

loyihalarning individualligi;

yuqori kapital talabchanlik;

uzoq muddatli ishlab chiqarish jarayonlari;

tashqi omillarga yuqori bog'liqlik.

Quyida O'zbekistonda qurilish tashkilotlari (korxonalari) sonining o'sish dinamikasi bo'yicha so'nggi yillar kesimida jadval shaklida tuzilgan ma'lumotlar keltirildi (1-jadval).

**1-jadval**  
**O'zbekistonda qurilish tashkilotlari sonining o'sish dinamikasi**  
**tahlili**

Yil	Qurilish korxonalari soni (ta)	O'sish dinamikasi
2020	40 300 – 40 700	bazaviy yil
2021	43 300	5 000 taga oshgan
2022	46 064	barqaror o'sish
2023	49 678	o'sish davom etgan
2024	53 296	yuqori o'sish sur'ati
2025	54 349	2% o'sish
2025 (08 o'yl)	29 232	yil boshidan 1 824 tashkil etgan

*Manba: Davlat statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Yuqoridagi ma'lumotlarga asosan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020–2025-yillar davomida qurilish korxonalari soni qariyb 1,3 barobarga oshgan. Eng yuqori o'sish 2021–2024-yillarda kuzatilgan. 2025-yilda ham o'sish saqlanib qolgan, lekin sur'ati biroz sekinlashgan. Qurilish sohasi iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, investitsiyalar va infratuzilma loyihalari hisobiga rivojlanmoqda[5].

Shu bois, strategik boshqaruvda noaniqlik va risklarni hisobga olish muhim hisoblanadi.

Xorijiy tajriba tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, rivojlangan davlatlarda qurilish korxonalari strategik

boshqaruvda innovatsion yondashuvlarni qo'llamoqda. Jumladan, Germaniya va Yaponiyada Lean construction konsepsiyasi keng qo'llaniladi. AQSHda BIM (Building Information Modeling) texnologiyalari asosiy vositaga aylangan. Yevropa davlatlarida ESG (ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) standartlari joriy qilingan.

Masalan, BIM texnologiyasi orqali loyihalash, qurilish va ekspluatatsiya jarayonlari yagona raqamli muhitda boshqariladi. Bu esa xarajatlarni 15–20% gacha kamaytirish imkonini beradi.

Bugungi kunda O'zbekiston sharoitida qurilish korxonalari tahlilida quyidagi muammolar kuzatilmoqda: strategik rejalashtirish darajasining pastligi;



raqamli texnologiyalarni joriy etishda qiyinchiliklar;

malakali kadrlar yetishmasligi;

risklarni boshqarish tizimining rivojlanmaganligi;

Bu esa korxonalar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

### Xulosa va takliflar

Quyidagi yo'nalishlarda strategik boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq:

#### *Raqamli transformatsiya yo'nalishida*

BIM va ERP tizimlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Qurilish tashkilotlarida BIM va ERP tizimlarini joriy etish - bu loyihalashdan tortib qurilish va moliyaviy boshqaruvga bo'lgan barcha jarayonlarni raqamlashtirish va bir-biriga bog'lash demakdir.

Qurilish obyektlarining axborotli modellashtirilishi (BIM- Building Information Modeling) - bu qurilish 3D raqamli modelda yaratish va shu model orqali obyektlarining fizik va funksional xususiyatlarini ifodalovchi raqamli axborot modelini yaratish, boshqarish va undan foydalanish jarayoni bo'lib, u loyihalash, qurish va ekspluatatsiya bosqichlarida ishtirok etuvchi barcha tomonlar o'rtasida yagona ma'lumotlar muhitini ta'minlaydi.

Natijada qurilish korxonalarida 3D model orqali barcha elementlar aniq ko'rinadi, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolar qurilishdan oldin aniqlanadi, risk kamayadi, turli mutaxassislar ishi muvofiqlashadi hamda kam xatolik, yuqori sifatga erishilishi ta'minlanadi.

Shuningdek, ish jarayonlari oldindan rejalashtiriladi, qayta ishlash (peredelka) kamayadi, qurilish muddati qisqaradi natijada loyiha tezroq tugallanishiga erishiladi.

Qurilish tashkilotlarida strategik boshqaruvni ta'minlashda "aqlli qurilish" (Smart construction) texnologiyalarini rivojlantirish zaruriyati mavjud.

Aqlli qurilish" (Smart Construction) - bu qurilish sohasida raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruvni qo'llash orqali samaradorlikni oshirish konsepsiyasidir. BIM esa aynan shu "aqlli qurilish"ning asosiy poydevori hisoblanadi.

Bunda raqamli modellar (BIM) - sensorlar (IoT), sun'iy intellekt (AI), avtomatlashtirilgan texnika yordamida qurilish jarayonini "aqlli" boshqarish tizimi bo'lib, barcha ma'lumotlar BIM modelda saqlanadi va barcha ishtirokchilar shu ma'lumot bilan ishlash mumkin bo'ladi va qurilish jarayonlari sensorlar orqali kuzatiladi hamda real vaqtda nazorat qilish imkoni yaratiladi.

#### *Innovatsion boshqaruv usullari yo'nalishida*

Agile va Scrum metodologiyalarini joriy qilish;

Lean construction tamoyillarini qo'llash.

#### *Inson kapitali rivoji*

mutaxassislarni qayta tayyorlash;

xorijiy tajribalarni o'rganish.

#### *Risk-menejment yo'nalishida*

risklarni aniqlash va baholash modellarini joriy etish; sug'urta va diversifikatsiya mexanizmlaridan foydalanish.

#### *Davlat va xususiy sektor hamkorligi yo'nalishida*

yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda PPP modellarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

### Amaliy takliflar

Har bir qurilish korxonasida **strategik rejalashtirish bo'limi** tashkil qilish maqsadga muvofiq. Shuningdek, BIM texnologiyasini majburiy bosqich sifatida joriy etish muhim. KPI asosida boshqaruv tizimini joriy qilish, risk-menejmentni alohida tizim sifatida shakllantirish va kadrlar uchun doimiy trening va qayta tayyorlash dasturlarini tashkil etib borish zarur.

Bizning fikrimizcha qurilish korxonalarida strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar, ilg'or boshqaruv usullari va inson kapitaliga investitsiya kiritish orqali korxonalar barqaror rivojlanishga erishishi mumkin.

Qurilish korxonalarida strategik boshqaruvni takomillashtirish - bu nafaqat nazariy, balki amaliy zaruratdir. Statistika ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy boshqaruv usullari va raqamli texnologiyalardan foydalangan qurilish korxonalarida bozorda ustunlikka ega bo'ladi.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida" gi PF-21-sonli Farmoni. 2026-yil 16-fevral.
2. Ansoff, H. I., and P. A. Sullivan. 1993. "Optimizing Profitability in Turbulent Environments: A Formula for Strategic Success." Long Range Planning 26, no. 5: 11–23. [https://doi.org/10.1016/0024-6301\(93\)90073-O](https://doi.org/10.1016/0024-6301(93)90073-O). Augier, M., and J. G. March. 2007. "The Pursuit of R2."
3. Porter, Michael E. (1980). Competitive Strategy. Free Press. ISBN 978-0-684-84148-9.
4. 3.Setting the Record Straight: The Intellectual Legacy of H. Igor Ansoff (1918–2002).
5. 4.[https://en.wikipedia.org/wiki/Strategic\\_management?utm\\_source=chatgpt.com](https://en.wikipedia.org/wiki/Strategic_management?utm_source=chatgpt.com)
6. 5.Stat.uz/en/press-center/news-of-committee/6715-how-many-enterprises-and-



- organizations-are-operating-in-the-  
construction-sector-in-  
uzbekistan?utm\_source=chatgpt.com
7. 6. <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-construction-sector-continues-to-grow/>.Uzbekistan's construction sector continues to grow